

SOHA QASAMLARINING MILLIY-MADANIY XOSLANISHI

*Saminjonov Muxammadali Salimjon o'g'li,
Farg'ona davlat universiteti chet tillari fakulteti ingliz tili kafedراسi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada, filologiya sohasida qo'llaniladigan soha qasamlarining milliy-madaniy xossalari ularning xususiyatlari va zamonaviylik tamoyili nutqiy janri qaysi fan nuqtai nazaridan o'rganilishi, uning tarixiy yoki zamonaviy shakli tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilishi, bundan tashqari, qasamyodning har qanday turi, u tarixiy shakli bo'ladimi yoki zamonaviy shakli bo'ladimi, o'ziga xos yondashuvlar asosida o'rganishni taqozo etishi, qasamyod nutqiy janriga tarixiy yondashuvning ahamiyati qasamyod va turlarining kelib chiqishi, rivojlanish tarixiga ond manbalar yordamida aniqlanishi bayon etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: soha, qasamyot, kommunikatsiya, nutq, janr, millat, jamiyat, milliy-madaniy, dunyoqarash, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА ОТРАСЛЕВЫХ КЛЯТВ

*Саминджонов Мухаммадали Салимджон угли,
Преподаватель кафедры английского языка факультета иностранных языков
Ферганского государственного университета*

Аннотация: В статье рассматриваются национально-культурные особенности полевых присяг, используемых в области филологии, их характеристика и принцип современности, речевой жанр, с точки зрения какой дисциплины, ее историческая или современная форма выступает в качестве объектом исследования, кроме того, любой вид клятвы, констатируется, что будь то историческая форма или современная форма, она требует изучения на основе конкретных подходов, значимость исторического подхода к речевому жанру Клятв определяется источниками происхождения и видами присяг, историей их развития.

Ключевые слова: поле, клятва, общение, речь, жанр, нация, общество, национально-культурное, мировоззрение, социальное, политическое, экономическое.

NATIONAL-CULTURAL SPECIFICITY OF INDUSTRY OATHS

*Saminjonov Mukhammadali Salimjon ugli,
Teacher of the Department of English at the Faculty of Foreign Languages of Fergana State
University*

Abstract: In the article, the national-cultural characteristics of field oaths used in the field of philology, their characteristics and the principle of modernity, the speech genre is studied from the point of view of which discipline, its historical or modern form serves as the object of research, in addition, any type of oath, it is stated that whether it is a historical form or a modern form, it requires to be studied on the basis of specific approaches, the importance of the historical approach to the speech genre of oaths is determined by the sources of the origin and types of oaths, the history of their development.

Key words: field, oath, communication, speech, genre, nation, society, national-cultural, worldview, social, political, economic.

Qasamyod kommunikatsiya jarayonida reallashuvchi nutqiy janrdir. Shuning uchun ham unda muayyan millat kishisi, uning jamiyati hamda ushbu jamiyatga tegishli milliy-madaniy xususiyatlar va ularning dunyoqarashlari o'z ifodasini topadi. Qasamyod nutqiy janri muayyan jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarida faol ishtirok etib, huquqiy, diniy, psixologik kabi bir kator munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bunda kognitiv jihatlariga ko'ra qasamyod nutqiy janrini tilshunoslikning bir kator zamonaviy Lunalishlari, jumladan, pragmalingvistika, lingvistika, matn lingvistikasi, stilistika, ritorika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, paralingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, tilshunoslik sohalarining ham obyekti sifatida e'tirof etish imkoniyati tug'iladi.

Lekin ushbu tilshunoslik yo‘nalishlarida qasamyod nutqiy janri yuzasidan to‘liq bilimlarga ega bo‘lmay turib, bu janr tabiati to‘grisida batafsil gapirib bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, qasamyod nutqiy janri tabiatini yoritishda, ayniqsa, uning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishda unga kompleks yondashish maqsadga muvofiqdir. Masalan, qasamyod nutqiy janrining bir turi bo‘lgan sodiqlik haqidagi qasamyodning eskirgan va zamonaviy ko‘rinishlari mavjud. Uning eskirgan ko‘rinishini tarixiylik tamoyili asosida bir nechta yondashuv, jumladan, diniy- falsafiy, siyosiy, folklor, sotsial va hokazolar orqali o‘rganish mumkin. Uning zamonaviy ko‘rinishini ham zamonaviylik tamoyili orqali bir diniy-falsafiy, folklor, sotsial, gender, badiiy yondashuvlar orqali tadqiq etish mumkin. Demak, qasamyod nutqiy janrida ishtirok etuvchi so‘zlovchi va tinglovchi hamda ular yashayotgan jamiyat omili uni bir qator yondosh fanlar bilan bog‘laydi. So‘zlovchi va tinglovchi munosabatlarni qasamyod nutqiy janrini psixologiya, gendershunolik, sosiologiya kabi fanlar bilan; so‘zlovchi-tinglovchi va jamiyat munosabatlari sotsiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, diniy falsafa, folklorshunoslik, gendershunolik kabi bir qator fanlar bilan tutashtiradi. Aytish joizki, qasamyod nutqiy janrini lingvistik o‘rganishga oid tadqiqotlarda lingvistik (verbal vositalar) va ekstralingvistik (noverbal vositalar kabi) vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishda tarixiylik-zamonaviylik tamoyillari asosiy tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Qasamyod nutqiy janrining milliy-madaniy xususiyatlari:

Zamonaviylik tamoyili nutqiy janri qaysi fan nuqtai nazaridan o‘rganilmasin, uning tarixiy yoki zamonaviy shakli tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, qasamyodning har qanday turi, u tarixiy shakli bo‘ladimi yoki zamonaviy shakli bo‘ladimi, o‘ziga xos yondashuvlar asosida o‘rganishni taqozo etadi. Qasamyod nutqiy janriga tarixiy yondashuvning ahamiyati shundaki, birinchidan, qasamyod va turlarining kelib chiqishi, rivojlanish tarixiga ond manbalar aniqlanadi. Har qanday jamiyatda qasamyod kutkiy janri to‘grisida tarixan qadimdan tasavvur shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda qasamyod nutqiy janri o‘zbek va ingliz xalqlarida jiddiy udumlardan biri sifatida koldimdan mavjudligi qayd etilgan.

Qasamyod nutqiy janri tarkibiga kiruvchi qasamyod shakllarining vaqt o‘tishi bilan yangi ko‘rinishlari vujudga keladi. Masalan, qasamyodning tarixiy turlari sifatida o‘zbek lingvomadaniyatida xun olish, ahdlashuv, bay‘at, yamin va hokazolarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu yondashuv orqali turli tizimli tillarda qasamyodlarining tarixiy ildizlari, rivojlanish yo‘llarini aniqlash orqali qasamyodlarda qo‘llanuvchi lisoniy va nolisoniy vositalarning tarixiyliigi kabilar qiyoslanadi, umumiy va farqli xususiyatlari aniqlanadi.

Qasamyod nutqiy janriga diniy-falsafiy yondashuvning ahamiyati shunda ko‘rinadiki, ushbu yondashuv orqali qasamyod nutqiy janri va uning tiplaridagi diniy e‘tiqodlar, diniy va falsafiy tasavvurlar, diniy majburiyat, diniy marosimlar bilan bogliq tushunchalar, jumladan, muqaddas shaxslar, joylar (ziyaratgoh, altar, ikona, qibla kabi), maxsus diniy so‘z yoki duolar, predmetlar (kitob, krest) kabilar o‘rganiladi. Qasamyod matnlari muayyan darajada din bilan boglikligi sababli ham unda muayyan xalqning diniy tasavvurlari aks etishi tabiiydir. Shu jihatdan ularni o‘rganishda quyidagilarga e‘tibor berish maqsadga muvofiq: a) diniy e‘tiqodning o‘ziga xosligi; b) qasamyod tiplarining o‘ziga xos falsafiy- diniy xususiyatlari; v) diniy tushunchalar (muqaddas shaxslar, joy, so‘zlar, predmet, muayyan rishtalar)ning ijtimoiy o‘ziga xosligi.

Iordaniyalik tadqiqotchi Xuseyn Almutlaq qasamyod nutqiy janri atamalarining sosiolingvistik xususiyatlarini o‘rganish jarayonida ushbu xalqning so‘zlashuv uslubiga xos qasamyodlarda eng ko‘p qo‘llanuvchi so‘zlar sifatida diniy burchlarni anglatuvchi saxovat, haj, zakot, ro‘zay ramazon, Umra kabilarni qayd etadi 49. Iroqlik tarixchi Javod Alining fikricha, Allox Islom arafasida tavxid goyasiga e‘tiqod qilgan arablarning maxsus xudosi bo‘lgan. “Alloh»so‘zi deyarli barcha johiliya shoirlarining deya asarlarida va aksariyat hollarda qasam iboralarida uchraydi ta’kidlaydi. Demak, diniy tushunchalarning mohiyatini bilmay turib, qasamyod ochib berish qiyin. Masalan, ingliz lingvomadaniyatidagi diniy lavozim bilan bog‘liq tushunchalar, ruhoni, yepiskop, monarx kabi lavozimlar o‘zbek lingvomadaniyatidagi muftiy , zohid so‘zlarining jamiyatda tutgan o‘rni haqida xabardor bo‘lmagan tinglovchiga ular tomonidan qabul qilinuvchi qasamyodlar mohiyatini tushunish biroz qiyin kechadi. Qasamyod nutqiy janri muayyan darajada din bilan bog‘liq nutqiy janr hisoblanadi , shu boisdan, uning lingvistik tadqiqida diniy-falsafiy yondashuvning ahamiyati katta. Siyosiy (huqiqiy) yondashuv orqali qasamyod tiplarining davlat

molik jihatlari o'rganiladi. Masalan, ingliz lingvomadaniyatida rasmiy-siyosiy qasamyodlar asrlar davomida maxsus qasamyodlar to'plami sifatida shakllanib, Birlashgan Qirollik parlamentida Oaths Act 38, ya'ni Qasamyodlar Akti deb nomlangan. Qadimda Birlashgan Qirollik Qasamyodlar Aktida qasamyod turlari juda ko'p bo'lgan, lekin unga yillar davomida o'zgartirishlar kiritish natijasida ancha ixchamlashib, soddalashgan. Hozirda amaldagi parlament hujjati sanalgan 1978-yildagi Qasamyodlar Akti eng oxirgi o'zgartirilgan akt sifatida e'tirof etiladi. Ingliz lingvomadaniyatidagi rasmiy-siyosiy qasamyodlarning o'ziga xosligi shunda ko'rinadiki, har bir tashkilot yoki muassasaning o'z ichki qasamyod shakllari mavjud. Masalan, qurolli kuchlar ichki qonunlarida qasamyodlar va tantanali tasdiqlash mavzusi yuzasidan alohida qonun hujjati bo'lib, unda qasamyod qabul qilishni tashkillashtirish, qasamyod qabul qiluvchi shaxslar haqidagi qoidalar ko'rsatilgan. Shotlandiya uchun maxsus qasamyod va tantanali tasdiqlash shakllari belgilangan hamda mutaxassis bo'lmagan xodimlar (lay members), tinglovchilar (persons in attendance for instruction), guvohlar (witness), tarjimon (interpreter) uchun maxsus qasamyodning shakli formulasi berilgan.

Turli sohalarda turli qasamyod shakllarini o'zida aks ettiradi. Sud sohasida uchraydigan qasamyod shakllari qurolli kuchlar yoki huquq sohasida uchramasligi mumkin. Zero, ushbu sohalarning o'z rasmiy qasamyod tiplari mavjud. Masalan, huquqiy hujjatlarda ham qasamyod nutqiy janrining o'ziga xos tipi sifatida, ya'ni yuridik uslubda ifodalangan guvoh ko'rsatmasining rasmiy shakli namoyon bo'ladi. Ushbu tiplar mazmunida aytilayotgan gaplarning haqiqat ekanligini belgilashda qasamyod qilish orqali yozma ko'rsatma berish nazarda tutilib, ko'p hollarda anketa ko'rinishida yuzaga chiqadi. Ingliz lingvomadaniyatida sud zalidagi qasamyodlarning buzilishi qonunga xilof deb topilib, jarima yoki qamoq bilan jazolanadi. Birlashgan Qirollikda Britaniya fuqarosi bo'lish yoki muayyan faoliyatni olib borishni istagan kishilarning, hatto Lordlar palatasi tarkibiga kiruvchi anglikan yepiskoplarining 1 shaxsan o'zidan Qirollikka, uning vorislari va merosxo'rlariga sodiq bo'lishga qasamyod qonunlarida qonunan talab etiladi. Birlashgan Qirollik qasamyodlarning kimlar tomonidan qabul qilinishining majburiyigi maxsus qonunlarda belgilab qo'yilgan. Masalan, qirollikning rasmiy qasamyodi mamlakatning konstitusiyaga tenglashtirilgan hujjatlarida qat'iy belgilangan bo'lib, u boshqa rasmiy qasamyodlardan butunlay farqlanadi, sud a'zolari va ijrochi xodimlar sodiqlik haqidagi qasamyod (oath of allegiance) bilan birga rasmiy (official oath) qasamyod qabul qilishlari shart. Buyuk Britaniyada rasmiy qasamyodning qabul qilinishi uning diniy e'tiqodga mansub yoki mansub emasligiga qarab tanlanadi. Ingliz lingvomadaniyatida rasmiy qasamyod (oath of office) buzilgan taqdirda bu davlatga xiyonat qilish bilan tenglashtiriladi va oliy jazo (o'lim) beriladi. Qasamyod qabul qilish bir qator huquqiy vakolatlar berish va ushbu lavozim uchun maosh to'lanishini kafolatlaydi.

Ingliz lingvomadaniyatida arxiyepiskop, yepiskop, ruhoniylar va boshqa cherkov xizmatchilari qasamyodlarining ham o'ziga xos tartib-qoidalarni mavjud. Masalan, Anglikan yo'nalishida maxsus rasmiy yuridik qonun (Canon's 7th edition 163) mavjud bo'lib, u xristian jamoasining rasmiy qonun-qoidalar kitobi sanaladi va rasmiy jihatdan davlat konstitusiyasi kabi o'z moddalariga ega, shu bilan birga, uning rasmiy javobgarligi mavjuddir. Bu qoidalarga ko'ra, diniy jamoa a'zolari tomonidan navbati bilan o'ziga xos qasamyodlar qabul qilinishi talab qilinadi. Qolaversa, diniy qasamyod shakllarida saylanish va saylash huquqi tushunchasi ham mavjud. Ushbu qasamyodlarni qabul qilish bilan qonuniy hujjat hisoblanuvchi maxsus sertifikatlar beriladi, bu esa diniy jamiyat tomonidan birdek tan olinganlikni, tasdiqlanganlikni anglatadi. Odatda, dinga qiluvchilar orasida diniy qasamyodlar muhim hisoblanadi, qasamyodni buzish esa og'ir gunoh deb qaraladi. O'zbek lingvomadaniyatida ham qadimda Islom Xiyonat uchun qasamyodga dinida e'tiqod maxsus shar'iy jazolar tayinlanganligi haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi.

Folklor asosida yondashuv. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida rasmiy va diniy qasamyodlar tantanali va jiddiy marosim sifatida o'tkaziladi. Shu nuktai nazardan qasamyod nutqiy janri (xalqona qasamyoddan tashqari) marosimiylik jihatdan quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- 1) rasmiy-an'anaviy marosim guvoh qasamyodi, teleko'rsatuvlardagi qasamyodlar, sport katnashchilari qasamyodlari;
- 2) rasmiy noan'anaviy marosim qasamyodlari; ijtimoiy to'lda, guruhlar
- 3) rasmiy-diniy marosim: bu tipdagi qasamyodlar rasmiy jihatdan omma ongida jiddiy marosim

sifatida tantanavorlik ruhida o'tkaziladi,

Masalan, prezident, qirolicha qasamyodlari, yepiskop qasamyodi, shifokor, askar, fuqarolik qasamyodlari;

4) diniy-rasmiy marosim: bu tipdagi qasamyodlar diniy tashkilot a'zolarining ichki qasamyodlari;

5) diniy-an'anaviy marosim: nikoh qasamyodi, cho'qintirish qasamyodi, sukut qasamyodi;

6) diniy-noan'anaviy marosim: do'st-birodar tutishish, non sindirish.

Qasamyod nutqiy janrida u yoki bu xalqning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari aks etadiki, buni dini, madaniyati, turmush-tarzi, an'ana va urf-odatlar bir-biridan farq qiladigan xalqlarning qasam ichish bilan bog'liq odatida kuzatish mumkin. Taqqoslaymiz: qasam yapon xalqida esa qasam matnini qog'ozga yozib, so'ng kuydirib, kulini ichish tarzida ijro etiladi. O'zbek xalqida, asosan, Xudo, muqaddas kitob, ajdodlar ruhi, e'zozlangan, muqaddaslashtirilgan narsalar nomini tilga olish, ko'zga surtish yoxud muqaddas joylarga borib qasam ichish keng tarqalgan. Ilmiy kuzatishlar asosida shuni aytish mumkinki, qasam ichuvchining butun xatti-harakatida animistik, magik, tabiat va ajdodlarga sig'inish kabi diniy e'tiqodlarning elementlari ham muhim o'rin egallaydi. Nonning ta'sir kuchiga ishonish, ajdodlar ruhi bilan yoki mo'ror, ziyoratgohlarda qasam ichish, buyumlarga qo'lini tekkizib so'zlash, ko'zga surtish hamda tabiat bilan bog'liq shakllangan qasam iboralari buning yaqqol dalilidir.

Sotsial yondashuv. Qasamyod nutqiy janri muayyan jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. U turli joylarda: ko'chada, uyda, bozorda, televizorda, radioda, filmda, gazetada, jurnalda va hokazolarda namoyon bo'ladi. Uning ijtimoiylashuvi bevosita shu jamiyat a'zolari bo'lgan so'zlovchi va tinglovchi nutqida sodir bo'ladi. Demak, har bir jamiyatning qasamyodga munosabati bo'lish bilan birga, qasamyod tiplari jamiyat qonun-qoidalariga mos ravishda o'ziga xos tarzda shakllanadi. Ayniqsa, qasamyod Nutqiy janri tiplarida so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqei, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, jinsi kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, rasmiy va diniy qasamyodlar. Lekin so'zlashuv nutqida so'zlovchi va tinglovchi jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqendan kat'iy nazar muayyan qasamyod shakllari mavjud. Albatta, bu usha suzlovchi va tinglovchi yashayotgan jamiyatning turmush tarzi, e'tiqodi bilan bog'likdir. Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida ota-ona nomin o'rtaga qo'yib qasam ichish eng og'ir qasam hisoblanadi. Negaki islomda ota-onalarning nomi bilan qasam ichish mumkin emas.

Tilshunos I.V.Arnold qasam iboralar sotsial jihatdan farqlanishi bu sotsial farq maktab o'quvchilari, o'smirlar, dengizchilar, fermerlar nutqqidagi iboralar o'rtasidagi farqda emas, balki turli universitet studentlari tomonidan ham tanlanadigan qasam iboralarining mavjudligi bilan, bunday iboralarda qandaydir mahalliylik tusi borligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, ingliz xalkida tinglovchini ishontirish uchun chin so'zim, gapning rosti kabi birliklar qasam sifatida qabul qilinaveradi. Demak, ushbu tamoyil orqali turli tillarda so'zlovchi, tinglovchining ijtimoiy mavqei, jamoasi kabi masalalar ko'riladi, qiyoslanadi, o'xshash va noo'xshash farqlari aniqlanadi.

Gender yondashuvning ahamiyati. Har bir jamiyatda erkaklar va ayollar xulqi bilan bog'liq o'zini tutish harakatlari mavjud. Bunday sifatlarni o'rganuvchi genderologiya fani ham shakllandi. Qasamyod nutqiy janrini gender nuqtai nazaridan tadqiq etganda, uning jinsiy, sinfiy, shu bilan birga, milliy-madaniy xususiyatlari yanada aniqlashadi. O'zbek xalqida erkakning oiladagi o'rni ayol kishinikiga nisbatan yuqori, uning so'zi qat'iy, to'g'ri deb qabul qilingan. O'zaro muloqotda erkakning bir so'zli (to'grisini so'zlash) bo'lishi bolaning yoshligidan singdirilib boriladi. Bu g'oyalar maqol va matallarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, yigit so'zidan, arslon izidan qaytmaydi. Yigitning so'zi ham o'zbek xalqida, asosan, yigitlar, erkaklar o'rtasida bir-birini ishontirish vositasi sifatida «o'g'il bolacha gap», «erkakcha so'z» kabi qasam iboralari ishlatiladi. G'arbiy mamlakatlarda o'zini mustaqil shaxs sifatida kashf etish g'oyasi yetakchilik qiladi. Shu boisdan ham qasamyod nutqiy janrida shaxs sifatida erishgan yutuqlari haqida gapirish ommalashgan va hujjatlarni o'z qoni bilan imzolash ingliz kishilariga xos bo'lgan odat sifatida shakllangan.

Qasamyod nutqiy janriga badiiy yondashuv. Qasamyodlarning paydo ibtidoiy tarixida nutqiy shakllanishida tasavvurlarning, anemizm (tosh, qilichdagi ruhga ishonish), totemizm

(oy, quyosh, tog'), fetishizm (sehrli narsalarga ishonish)larning ta'siri katta bo'lgan. Uning hozirgi ko'rinishlarida ham qisman ibtidoiy tasavvur unsurlari uchraydi. Masalan, ingliz lingvomadaniyatidagi diniy lavozim qasamyodlari mazmuni lotin tilida aytilgan turli diniy murojaatlar, Xudo va Iso munosabatlarini aks ettiruvchi mukaddas oyatlar va Xudoni madh etuvchi sanolardan tashkil topadi. Xudo nomi bilan berilayotgan va'da yoki Ahdning qabul qilinishi yoki buzilishi mumkin emasligi yaxshi ma'lum. Ayniqsa, diniy ulamolar guvohligida diniy shart va tartib asosida qasam ichish jiddiy qabul qilingan. Qasamyod nutqiy janrida ifodalanayotgan fikr haqiqiy qasamyod ma'nosida jiddiylikni bildirsa, qolgan holatlarda fikrni kuchaytiruvchi vosita sifatida vazifa bajaradi. Xullas, ushbu yondashuv orqali turli tizimli tillarda qasamyod tiplarining badiiyati, eskirgan yoki yangi tiplarining shakliy-mazmuniy tuzilishi kabi masalalar o'rganiladi, qiyoslanadi, o'xshash va noo'xshash xususiyatlari aniqlanadi.

Qasamyodagi paralingvistik yondashuv. Ushbu yondashuvda orqali qasamyoddagi barcha ramziy belgilarning mazmuni o'rganiladi. M.Saidxonovning ta'kidicha, ramziy belgilar etiket (zdayu) shakllari bilan aloqador bo'lib, muomala madaniyatida shakllanib qolgan urf-odat, diniy rituallar, irim qilish va boshqa an'anaviy xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Ramziy belgilar ham axborot berish uchun ishlatiladigan belgi sanalib, «qo'lni qovushtirish», «qo'l olishuv», tiz cho'kish va boshqa xatti - harakatlar ramziy noverbal vositalar sirasiga kiradi. Bu ishoralarning prototipi o'zbeklardagi adab qoidalari, urf- odatlari bilan bog'liqdir. Ramziy belgi kommunikativ akt tarkibida bo'lgandagina noverbal vosita sifatida talqin etilishi mumkin. Qasamyoddagi ramziy belgilar va paralingvistik vositalar ushbu janrda asosiy yoki yordamchi unsur vazifasini bajaradi. Rasmiy uslubga xos qasamyodlarda paralingvistik vositalar verbal vositalarga yordamchi unsur sifatida ishtirok etsa, so'zlashuv nutqida verbal vositalarning o'rnida qo'llanishi ham mumkin. Ammo bunday imo-ishora va qo'l harakatlarini kar- soqovlar tilidagi imo-ishora va xatti-harakatlardan farqlash lozim, chunki kar-soqovlar tili belgilar tili, kodlangan tildir.

Paralingvistik vositalar xalqona qasamyodlarda ko'p qo'llanadi, uning turli shakllari uchraydi. Masalan, bozorda, ayniqsa, mol bozorida, qat'iy kelishuvni anglatuvchi «qo'l berish», «qo'l tashlash» kabi situativ paralingvistik vositalar to'laligicha kelishuvni anglatadi. Ahdlashuvning bu ko'rinishi asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan odatdir. Albatta, ushbu odatning kelib chiqishi islom dini tarixiga borib taqaladi. Diniy manbalarda yozilishicha, shayxga bay'at qilayotgan murid u kishining qo'lini qo'lga berib turib, bay'at qiladi!». Arab tilida yamin qasami mavjud bo'lib, yamin so'zi arabchada "qasam, ont", "o'ng tomon, o'ng qo'l" ma'nolarini anglatadi. Arablar odatiga ko'ra, kishilar qasam ichganda bir- birlarining o'ng qo'llaridan tutib turib, qasam ichishar ekan. Albatta, o'zbek va arab lingvomadaniyatidagi ayni o'xshashlikni ozroq bo'lsa-da, islom dini tutashtirib turadi, desak xato bo'lmaydi. Ingliz lingvomadaniyatida avval qo'lini krest yo'nalishida harakatlantirib, so'ngra o'ng qo'lini ko'tarish orqali ahdlashiladi. Qasamyod qabul qilish marosimida qo'lin ko'tarish (Hand raising) Xudoning so'zlari o'zgarmasligi, kat'iyligi va ishonchliligini bildiruvchi iloxiy xatti-harakatni bildiradi. Krest (cross) esa Isoga ishonishni anglatadi. Bu qasamyod jarayonidagi faol paralingvistik vositalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Balashov L. Chelovek – mera vsex veyey // <https://lev-balashov.livejournal.com/23289.html>
2. Tokarev G.V. Lingvokulturologiya. – Tula: Izdatelstvo TGPU im. L. N. Tolstogo, 2009. – S. 6.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Akademiya, 2007. – S.8.
4. Radbil T.B. Основы изучения языкового менталитета. – M.: Flinta, Nauka, 2010. – S. 90.
5. Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent, 2005. – B. 127.
6. Kolshanskiy G. V. Obyektivnaya kartina mira v poznanii i yazyke – M., 1990. – S. 62.
6. Kazakova O.A, Frik T.B. Praktikum po kulture rechevogo obshcheyeniya na russkom yazyke: uchebnoye posobiye /